

## FE’L SO‘Z TURKUMI VA UNDA GRAMMATIK SHAKLLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

**Turonboyeva Sabina Fayzulla qizi**

*Sh. Rashidov nomidagi*

*SamDU Urgut filiali Pedagogika va  
tillarni o‘qitish fakulteti 1-bosqich talabasi*

*E-mail: [sabinaturonboyeva@gmail.com](mailto:sabinaturonboyeva@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fe’l so‘z turkumining grammatik xususiyatlari, fe’lning zamon, shaxs-son, mayl, nisbat kabi grammatik kategoriyalari atroflicha tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, fe’llar nutqning harakatini ifodalovchi asosiy vositasi bo‘lib, til tizimida markaziy o‘rin tutadi. Nazariy qarashlar bilan birga amaliy misollar ham keltirilgan. Bu esa mavzuni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *fe’lning funksional shakllari (harakat nomlari, sifat-dosh, ravish-dosh), fe’llarda tuslanish (mayl, zamon, shaxs-son shakllari), nisbat shakllari, affiks, kategoriya.*

**Abstract:** *This article provides a detailed analysis of the grammatical features of the verb word class, its grammatical categories such as tense, person-number, mood, and proportion. The relevance of the topic lies in the fact that verbs are the main means of expressing speech action and occupy a central place in the language system. Along with theoretical views, practical examples are also presented. This serves to provide a deeper understanding of the topic.*

**Keywords:** *functional forms of the verb (action nouns, adjectives, adverbs), inflection in verbs (inflection, tense, person-number forms), relative forms, affix, category.*

**Аннотация:** *В статье дается подробный анализ грамматических особенностей класса глагольных слов, а также грамматических категорий глагола, таких как время, лицо-число, наклонение и вид. Актуальность темы заключается в том, что глаголы являются основным средством выражения речевого действия и занимают центральное место в системе языка. Наряду с*

*теоретическими взглядами приводятся практические примеры. Это поможет вам глубже понять тему.*

**Ключевые слова:** функциональные формы глагола (существительные действия, прилагательные, наречия), склонения в глаголах (склонение, время, формы лица и числа), относительные формы, аффикс, категория.

**Özet:** *Bu makalede, fiil kelime sınıfının dilbilgisi özelliklerinin yanı sıra fiilin zaman, kişi sayısı, kip ve görünüş gibi dilbilgisi kategorileri ayrıntılı bir şekilde analiz edilmektedir. Konunun önemi, fiillerin konuşma eylemini ifade etmenin başlıca aracı olması ve dil sisteminde merkezi bir yer tutmasıdır. Teorik görüşlerin yanı sıra pratik örnekler de sunulmaktadır. Bu, konuyu daha derinlemesine anlamana yardımcı olacaktır.*

**Anahtar kelimeler:** *fiilin işlevsel biçimleri (eylem isimleri, sıfatlar, zarflar), fiillerin çekimleri (çekim, zaman, kişi-sayı biçimleri), izafi biçimler, ekler, kategori.*

### KIRISH:

O‘zbek tilining leksik va grammatik tuzilmasida fe‘l so‘z turkumi alohida o‘ringa ega. Fe‘l — harakat, holat va voqea-hodisani ifodalovchi so‘z turkumidir. Tilshunoslikda fe‘l nafaqat so‘z yasalishi, balki gap tuzilishi, fikr bayoni va matnning umumiy mazmunini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Uning grammatik shakllari orqali harakatning zamoni, bajaruvchisi, usuli, davomiyligi va bajarilish ehtimoli ifodalanadi. Shuning uchun fe‘lning grammatik shakllarini o‘rganish tilshunoslikda asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Fe‘l asosiy so‘z turkumlardan biri hisoblanadi. Chunki, fe‘l so‘z turkumi o‘z ma‘nosi, grammatik shakllari va sintaktik vazifalari bilan boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi. Eng katta so‘z turkumi ham fe‘l hisoblanadi. Fe‘lning asosiy grammatik vazifasi kesim bo‘lib kelishidir. Shu bilan birga, fe‘lning ayrim shakllari kelishik, egalik affikslarini qabul qilib, gapda ega, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida keladi. Shunga ko‘ra, bunday shakllar fe‘lning funksional shakllari hisoblanadi. Harakat nomlari, sifat-dosh va ravish-dosh shakllari fe‘lning funksional shakllarini tashkil etadi.

Fe‘lning funksional shakllarida, bir tomondan, fe‘lga xos belgilar mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalari bo‘yicha bu shakllar boshqa so‘z turkumlariga yaqin turadi. Bu jihatdan harakat nomlari otga,

sifatdosh shakllari sifatga, ravishdosh shakllari ravishga yaqin turadi. Chunki, bu turkumlar bir -birini uzviy bog‘lab turadi.<sup>96</sup>

Harakat nomi. Fe‘ning otga xoslanga shakli harakat nomi deyiladi. Eski o‘zbek tilida harakat nomining -maq/-mak va -sh(-ish, -ush) affikslari bilan hosil bo‘luvchi shakllari qo‘llangan. -maq / -mak affiksli shakl harakat nomining asosiy ko‘rsatkichi sifatida eski o‘zbek tilida keng iste‘molda bo‘lgan. Bu affiksli shakli turkiy tillarda qadimdan qo‘llanib keladi. O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy (uyg‘ur)tilida ham qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek tilida esa fe‘l asoslariga -(i)sh, -(u)v, -moq va -mak qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Masalan, o‘qish, yozish, saylov, yozuv, bilmoq va ko‘rmak. Harakat nomi otlar kabi egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi va gapda ular bajaradigan gap bo‘laklari vazifasida keladi.

Masalan, Kelishik: Chiroyli yozishni o‘rgan! Ko‘plik: Vaqtni samarasiz tortishuvlarga sarflamaylik. Egalik: Yozuving yomon emas.

Demak harakat nomi shakli omonimlik xususiyatiga ega. U modal so‘zini ham hosil qiladi. Masalan, oldiga kelganini yemak-hayvonning ishi, og‘ziga kelganini demak-nodonning ishi. Demak, mening gapim yolg‘on? Birinchi gapda harakat nomi, ikkinchi gapda esa modal so‘z.

Sifatdosh shakli. Fe‘ning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdosh fe‘l asoslariga-gan (-kan,-qan),-ydigan (-adigan), -(a)yotgan, -(a)r qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi.

Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o‘xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg‘un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o‘zgarish, harakat belgisini ifodalaydi. Masalan, katta (sifat)daryo, oqar (sifatdosh) daryo. Sifatdoshlar fe‘l shakli bo‘lganligi uchun fe‘lga xos bo‘lgan zamon, bo‘lishli-bo‘lishsiz, nisbat ma‘nolarini ifodalaydi. Sifatdoshning bo‘lishsiz shakli sifatdosh hosil qiluvchi qo‘shimchalardan oldin -ma qo‘shimchasini keltirish orqali yasaladi.<sup>97</sup> Masalan, o‘qigan-o‘qimagan, ishlayotgan-ishlamayotgan, yozadigan-yozmaydigan. Shuni ham bilib qo‘yishimiz kerakki, sifatdoshlar otalashish xususiyatiga ham egadir.

<sup>96</sup> G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008-y. 172-bet

<sup>97</sup> Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. N.Mahmudov, A.Sobirov, D.Nurmonov, D.Nabiyeva. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent-2017. 57-bet.

Sifatdosh bog‘langan ot tushib qolsa, ular otlashadi. Otlashganda otga xos qo‘shimchalarni qabul qiladi.

Masalan: Intilganga (intilgan insonga) tole yor, Qimirlagan (qimirlagan kishi) qir oshar kabilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Sifatdoshlar otlashganda ot bajargan sintaktik vazifalarni ham bajarish olish xususiyatiga ega:

Ega: Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar.

Qaratqich aniqlovchi: Maqtanganning uyiga bor, kerilganning to‘yiga bor.

To‘ldiruvchi: Ayрилganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer.

Hol: Urush boshlanganda u hali go‘dak edi.

Ravishdosh shakli. Ravishdosh fe‘lning ravishga xoslangan shakli hisoblanadi. Shuni unutmasligimiz kerakki, ravish bilan ravishdosh bir-biridan farq qiladi. Ravish fe‘lga bog‘lanib, harakatning belgisini bildiradi.

Masalan, tez keldi – qanday? keldi. Bunda ravish asosining o‘zi ravish bo‘lib kelgan. Ravishdosh ham fe‘lga bog‘lanib, harakatning belgisini bildiradi. Bunda shoshib keldi - qanday ? keldi. Bu yerda ikkalasi ham bir -biriga o‘xshash bo‘lib kelgan. Ravish va ravishdoshning bir-biridan farqi shundaki, ravishdoshning asos-negizi fe‘l bo‘ladi va fe‘lga -b(-ib), -a (-y), -gach (-kach,

-qach), -guncha (-quncha, -kuncha), -gancha(-qancha, -kancha) -gani(-kani,

-qani) qo‘shimchalari qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, shoshib kelmoq, kulib gapirmoq, o‘ylab javob bermoq, suhbatlashgani kelmoq, tepalikdan o‘tgach, tong otgach kabi gaplarni misol keltirishimiz mumkin. Ravishdosh qo‘shimchalari turli xil ma‘nolarni bildirib keladi. Misol tariqasida -b(-ib), -a(y) qo‘shimchalari asosan holatni, ba‘zan sabab va paytni bildirib keladi: kulib gapirmoq (holat), qo‘rqib kirmadi (sabab), Bobur gulni yana bir hidlab boshidagi sallasining qatiga qistirib qo‘ydi (payt). -gancha (-kancha, -qancha) qo‘shimchalari holatni bildiradi: Suvga tikilgan gancha o‘ylanib qoldi. -gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha) qo‘shimchalari paytni bildiradi: Qosh qorayguncha yetib olish kerak. -gani (-kani, -qani) qo‘shimchalari esa maqsadni bildiradi: Siz bilan suhbatlashgani keldim.<sup>98</sup> Bugungi kunda ravishdosh so‘zlar tilimizda juda katta muhim ahamiyatga egadir. Masalan, nutqni boyitadi, gap bo‘laklari o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ravishdoshlar yordamida gaplarimiz ixcham, ravon hamda

<sup>98</sup> Nargiza Erkaboyeva O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami “Yosh kuch” Toshkent -2019 252-bet

obrazli bo‘ladi. Hozirgi kunda ravishdoshlar yozma va og‘zaki nutqda keng qo‘llanib kelmoqda. Ular gaplar orasidagi bog‘liqlikni yaratish, fikrni aniq, tushunarli va lo‘nda ifodalashga ham ifodalashga yordam beradi. Masalan, kechgga yaqinlashgach, havo aynib, shamol turdi. Dildora eshikni ochib, ichkariga kirdi shu kabi gaplarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe‘l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Nisbat shakllari fe‘lning asos qismidan keyin, har qanday shakl yasovchi qo‘shimchadan eng oldin qo‘shiladi. O‘zbek tilida beshta nisbat shakli bor. Ularga aniq, birgalik, o‘zlik, majhul va orttirma nisbatlar kiradi. Aniq nisbat. Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat yoki holatni bildirgan fe‘l shaklidir. Maxsus qo‘shimchaga ega emas. Unga misol tariqasida bilmoq, ko‘rmoq, aytmoq, qaytmoq so‘zlarini keltirishimiz mumkin. Birgalik nisbat. Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe‘l shaklidir. Uning qo‘shimchasi –(i)sh. Masalan, tozalashdi , tinglashdi . Ortirma nisbat. Bajaruvchining ta’siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi nisbat shaklidir. Uning qo‘shimchalari -t , -dir (-tir), -giz (-kiz , -qiz , -g‘iz ), -gaz (-kaz , -qaz ) ,

-ir, -ar, -iz, -sat kabi qo‘shimchalar yordamida yasaladi. Masalan, o‘qitmoq, ko‘rsat, yedirmoq, uqtir, turg‘iz, ketkiz, bitkazmoq, tomizmoq, ichirmoq, oshirmoq. Nisbat qo‘shimchalari fe‘lning asos qismidan keyin qo‘shiladi . Nisbat qo‘shimchalari orqali biz fe‘lning turli xil ko‘rinishlarini yaratishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunda fe‘l nisbatlarining ahamiyati tilshunoslikda va amaliy tilda juda muhimdir. Ular nafaqat grammatik vosita, balki fikrni aniqlik bilan ifodalash, uslubni belgilash va talaffuzdagi tiniqlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zlik nisbati - bajaruvchining o‘z ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalashiga aytiladi. O‘zlik nisbati fe‘l asosiga –(i)n, -(i)l qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan: taradi -tarandi, yuvdi -yuvindi, maqtadi-maqtandi, kiydi- kiyindi, qo‘zg‘adi -qo‘zg‘aldi. O‘zlik nisbatda harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo‘ladi: Ulug‘bek yuvindi gapida Ulug‘bek harakat bajaruvchisi hamda harakat bajarilayotgan obyekt hisoblanadi. O‘zlik nisbat shakli faqat o‘timli fe‘llarga qo‘shiladi.

Misol tariqasida kiyindi (kiy -o‘timli fe‘l ), artindi (art - o‘timli fe‘l ), yuvindi (yuv -o‘timli fe‘l ), tarandi( tara -o‘timli fe‘l ) so‘zlarini olishimiz mumkin. O‘zlik

nisbati qo‘shimchalari ba‘zan o‘timsiz fe‘llarga ham qo‘shilib kela oladi: ajraldi, bo‘shaldi, isin, og‘rin singari. Ayrim fe‘llardan o‘zlik nisbati shaklini yasab bo‘lmaydi. Ularga yayramoq, sayramoq, qichqirmoq, uxlamoq so‘zlarni keltirishimiz mumkin. Majhul nisbat-bajarilishi noma‘lum bo‘lgan harakat yoki holatni bildirgan fe‘llar. Bosh nisbatning asosan o‘timli fe‘l leksemalari shakllaridan -(i) l, -(i)n qo‘shimchalari vositasida hosil qilinadi. Masalan :

1. Kiyimlar Zebo tomonidan yuvildi .
2. Xazonlar yoqish uchun bir joyga to‘plandi.
3. Marjon donalari bir ipga tizildi .
4. Qatag‘on yillarida necha-necha begunohlar otildi .

O‘zlik va majhul nisbat shakllari bir xildir. Ammo ularning farqi harakat va holatni bajaruvchisini aniq bildirish yoki bildirmasligiga ko‘ra farqlanadi. O‘zlik nisbatda bajaruvchi aniq bo‘ladi va ko‘pincha gapning egasi bilan ifodalanadi. Lekin majhul nisbatda bajaruvchi noaniq bo‘ladi. Gapda to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Masalan:

1. Gul ochildi. (o‘zlik nisbatda)
2. Sir taftishchi tomonidan ochildi. (majhul nisbatda)
3. Odina darsga tayyorlandi. (o‘zlik nisbatda )
4. Dars Odina tomonidan tayyorlandi. (majhul nisbatda)

Fe‘lning grammatik belgisi tuslanish hisoblanadi. Fe‘llarning tuslanishiga mayl, zamon va shaxs -son kategoriyalarini o‘z ichiga oladi. Fe‘llardagi zamon tushunchasi nisbiy bo‘lib, u nutq so‘zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi. Fe‘llarning zamon shakllari- fe‘l asosida ifodalangan harakat -holatni uch zamondan birida sodir bo‘lishini bildiruvchi shakllar. Fe‘l uchta zamon shakllariga ega: o‘tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon. O‘tgan zamon , ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan (bo‘lishli shaklda) yoki bajarilmagan (bo‘lishsiz shaklda)ini ifodalaydi. O‘tgan zamon fe‘l formalari nutqda o‘zaro xususiy modal ma‘nolariga ko‘ra farqlanadi. Bu esa ularni ichki ma‘no turlariga ajratishni taqozo etadi. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan zamon fe‘llarining 1) yaqin o‘tgan zamon; 2) uzoq o‘tgan zamon; 3) o‘tgan zamon hikoya; 4) o‘tgan zamon davom; 5) o‘tgan zamon maqsad fe‘llari kabi turlarga ajratilgan. Fe‘l asoslariga -di, -b , -gan (-kan , -qan) qo‘shimchalarini va ulardan so‘ng shaxs -son qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Esda saqlang : o‘tgan zamonning



barcha qo‘shimchalari uslubiy betaraf qo‘shimcha hisoblanadi. Hozirgi zamon fe‘llari -hozirgi yoki doimiy davom etuvchi harakatni bildiradi. Uni hosil qiluvchi qo‘shimchalarga -yap, -yotir(-ayotir), -moqda, -(a)yotib shu qo‘shimchalar kiradi. Masalan, o‘qiyman, yozyapman, kelayotir, kelmoqdasan kabi. Kelasi zamon fe‘llari – kelajakda sodir bo‘lishi kutilayotgan harakatni bildiradi. Kelasi zamoni hosil qiluvchi qo‘shimchalarga -a(-y), -r(-ar), -jak , -gay

(-kay , -qay), -ur, -gusi kabi qo‘shimchalar kiradi. Masalan: o‘qiyman, o‘qirman, kelgusi, borajakman, borgayman. So‘zlovchining ish–harakatga munosabatini ifodalovchi shakllar yig‘indisi fe‘l mayli deyiladi. O‘zbek tilshunosligida to‘rtta mayl bor: xabar mayli, buyruq–istak mayli, shart mayli, maqsad mayli. Xabar mayli ish-harakatning uch zamondan birida bajarilishi yoki bajarmasligini ifodalaydi. Buyruq-istak mayli – buyurish, maslahat, iltimos, chaqirish kabi ma’nolarni ifodalaydi . Ba’zan buyruq ma’nosini kuchaytirib yoki bo‘shashtirib , iltimosni, ta’kidni bildirish uchun II-shaxs birligiga -gin qo‘shimchasi qo‘yiladi. Masalan: borgin, o‘qigin, aytgin. Shart mayli biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatni ifodalaydi. U fe‘l o‘zagiga -sa qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi. Misol tariqasida o‘qisa, bormasa so‘zlarini olishimiz mumkin. Maqsad maylidagi fe‘llar ish -harakatni bajaruvchining maqsadi, niyati, mo‘ljali bildiradi. Bu mayl-moqchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi va undan keyin shaxs-son qo‘shimchalarini keladi. Masalan: bormoqchiman, aytmoqchisiz, kelmoqchi. Yuqorida ko‘rsatilgan mayllarning har biri o‘z vazifasini bajarib, gap mazmunini to‘liq va aniq ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda fe‘l mayllari obrazlar xarakterini ochishda, ruhiy holatni ifodalashda va drammatik vaziyatlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Fe‘l mayllari o‘zbek tilining eng muhim grammatik vositalaridan biridir.

Fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanishi o‘zbek tilida fe‘llarning kim tomonidan va qancha miqdorda bajarilishini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Bu jarayon fe‘llarning grammatik shakllarini to‘g‘ri tushunish va qo‘llashda asosiy rol o‘ynaydi. Shaxs-son qo‘shimchalari fe‘llarning asosiy shakliga qo‘shilib, ularni shaxs va son bo‘yicha aniqlaydi. Fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanishi uchun avval fe‘lning asosiy shaklini aniqlash kerak bo‘ladi. Fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanishi nutqning to‘g‘ri va aniq bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining morfologik tizimi boy va rang-barang bo‘lib, unda shaxs-

son qo‘shimchalari alohida o‘rin tutadi. Bu qo‘shimchalar so‘zlarga qo‘shilib, ularning egasini, sonini va ayrim hollarda egalik munosabatini bildiradi. Xususan, shaxs-son qo‘shimchalari fe‘l va ot so‘z turkumlariga xos ravishda har xil ma‘nolarni anglatadi va bu ularning o‘ziga xosligini belgilaydi. Avvalo, fe‘lga qo‘shilgan shaxs-son qo‘shimchalari ish-harakatni bajarayotgan yoki bajaruvchi shaxsini bildiradi. Masalan, boraman, borasan, boradi kabi shakllarda har bir fe‘lga shaxs-son ifodalovchi qo‘shimcha qo‘shilib, birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxslar bildirilib ketadi. Bu holat tilimizda egasiz gaplarning tuzilishiga imkon yaratadi. Ya‘ni “men boraman “ gapining o‘rniga shunchaki “boraman” deb aytish bilan egani anglatish mumkin bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, otga qo‘shilgan shaxs-son qo‘shimchalari egalik ma‘nosini ifodalaydi. Masalaan: kitobim, daftarimiz, uylaringiz kabi shakllarda bu qo‘shimchalar sintaktik jihatdan ham muhimlik kasb etadi. Shaxs-son qo‘shimchalari o‘zbek tilining grammatik tizimida nafaqat so‘zlarning shakllanishida, balki butun gap tuzilishida muhim rol o‘ynaydi. Ular tilda shaxs, son va egalikni ifodalash, hamda gapning lo‘nda va tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bu qo‘shimchalar tilshunoslikda chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim mavzulardan biridir.

### **Xulosa.**

Fe‘l so‘z turkumi o‘zbek tilining eng muhim va faol so‘z turkumlaridan biri hisoblanadi. U nutqda ish-harakat, holat va voqea-hodisalarni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Fe‘lning grammatik shakllari – zamon, shaxs, mayl, nisbat va inkor kabi kategoriyalar orqali u tilning morfologik va sintaktik tizimida alohida mavqega ega bo‘ladi. Ayniqsa, shaxs-son qo‘shimchalari, zamon ko‘rsatkichlari va mayl shakllari fe‘lni turli grammatik ma‘nolarda ifodalash imkonini beradi.

Fe‘l shakllarining o‘ziga xosligi shundaki, ular yordamida gapdagi fikrning yo‘nalishi, bajaruvchisi, bajarilish vaqti va harakatga bo‘lgan munosabat aniq va lo‘nda tarzda ifodalanadi. Shuningdek, fe‘lning zamonaviy nutqda turli ko‘rinishlarda (og‘zaki, badiiy, ilmiy va rasmiy uslublarda) erkin ishlatilishi uning qanchalik moslashuvchan va ko‘p qirrali ekanidan dalolat beradi. Fe‘l va uning grammatik shakllarini chuqur o‘rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki amaliy nutq madaniyatini yuksaltirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, fe‘lning grammatik imkoniyatlari o‘zbek tili grammatikasi doirasida doimiy tadqiqot va tahlil etilishi lozim bo‘lgan mavzulardan biridir.



**Foydalanilagn adabiyotlar:**

1. G ‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov , Q.Mahmudov. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008-y. 172-bet
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf uchun darslik . N.Mahmudov , A.Sobirov , D.Nurmonov, D.Nabiyeva . “Tasvir ” nashriyot uyi . Toshkent-2017. 57-bet .
3. Nargiza Erkaboyeva O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami “Yosh kuch ” Toshkent -2019 252-bet
4. Yengil ona tili saboqlari / N.Rasulov – T: “Ilm -ziyo -zakovat ” 2021 57-bet
5. <https://cyberleninka.ru>. Pdf
6. <https://arxiv.uz> >documents
7. T.Choriyev , N.Safarova, Sh. Istamova . O‘zbek tili -Toshkent. : “Iqtisod - Moliya” 2008. 165-bet.
8. <http://dosx.uz>